

BADIIY ASARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI

Talaba: Ziyotova Oysha Ixtiyor qizi

Axborot texnologiyalari va menjment universiteti

Fiologiya tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: @ziyotovaaisha@gmail.com

Ilmiy rahbar: Bozorov Orif Chamanovich

Qarshi Axborot texnologiyalari va menjment universiteti,

Fiologiya kafedirasi dotsenti (PhD)

E-mail: orifbozorov8@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarning inson ruhiyatiga bevosita ta'siri ko'rib chiqilgan. Merach Chag'ri Oqtoshning “Ozinga xush kelding” va “Sen o'n yetti yoshimsan” asarlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Psixologik, ruhiy, hissoyotlar, asar, ijobiy, salbiy, yozuvchi, inson, ta'sir etuvchi.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние художественного произведения на психику человека. Проведен анализ произведений Мерача Чагри Октоша “Ты мое семнадцать лет” и “Добро пожаловать к себе”.

Ключевые слова: Психологический, духовый, чувства, произведение, позитивный, негативный, писатель, человек, влияющий

Anotation: In this article analyzes the direct impact of literary works. On the human psyche through the example of Merach Chagri Oqtosh's “Welcome to yourself” and “You are my seventeen”.

Key words: Psychologically, mental, feelings, literary works, positive, negative, author, human, impactful

Kirish. Badiiy adabiyot va san'at badiiy asar shaklida yashaydi, shunga ko'ra, badiiy asar adabiyot va san'atning yashash shakli hisoblanadi. Avvalo, “badiiy asar” degan birikma keng va tor ma'noda qo'llanishini e'tiborga olish zarur. Keng ma'noda badiiy asar deyilganda

san'atga (musiqqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, kino, teatr v.h.) aloqador, insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy – ruhiy faoliyati mahsuli bo'lmish yangi mavjudlikni tushunamiz. Biz mazkur birikmani tor ma'noda qo'llash orqali badiiy adabiyotga mansub bo'lgan har qanday asarni tushunamiz. Ya'ni, “badiiy asar” deganda biz “adabiy badiiy asarni” nazarda tutamiz.

Badiiy asar haqida gap ketganda, avvalo, uning badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vosiyasi ekanligiga to'xtalish joiz. Ma'lumki, muloqot paytidagina til hodisasi nutq hodisasiga aylanadi. Adabiy badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekan, demak, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasidir. Zero, badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya'ni, ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Tasavvur qilingki, siz kimgadir maktub yozayapsiz. Siz maktubingiz kimga yozilayotganini, uning qanday insonligi, u bilan qay yo'sin muomala qilish kerakligini... har vaqt nazarda tutasiz, boshqacha aytsak, maktubni yozish davomida adresat har vaqt xayolingizda turadi: siz yetkazmoqchi bo'lgan xabarni u tushuna oladigan, unga ta'sir qiladigan tarzda yozishga intilasiz. Demak, aslida xat yozish jarayonida siz adresat bilan muloqotga kirishasiz – tasavvuringizdagi suhbatdosh bilan “xayolan gaplashasiz” va ayni shu suhbat (muloqot jarayoni) qog'ozga muhrlanadi. Qog'ozga muhrlangan “suhbat – muloqot”, maktub adresat qo'liga etib borgach, yana jonlanadi. Endi siz adresat tasavvuridagi suhbatdoshsiz: real suhbatdoshga aylangan adresat sizning gaplaringizni “eshitadi”. Ma'lum bo'ladiki, maktub, umuman, yozma nutq muddati kechiktirilgan muloqot, matn esa muloqotning amalga oshish vositasi ekan. Shunga o'xshash, yozuvchi ham ijod onlarida tasavvuridagi o'quvchi bilan muloqotda bo'ladi: unga muayyan badiiy informatsiyani yetkazadi, o'zining o'y – hislari bilan o'rtoqlashadi, u bilan bahslashadi, uni nimalargadir ishonitirishga intiladi. Ayni shu muloqot – ijodiy jarayon asar matnida muhrlanadi. Xuddi maktubga o'xshash, asarni o'qish jarayonida muloqot qaytadan jonlanadi, endi yozuvchi tasavvuridagi “suhbatdosh” mavqaida tursa, o'quvchi real suhbatdoshga aylanadi. Ko'ramizki, badiiy matn muddati kechiktirilgan badiiy muloqot, badiiy asar esa shu muloqotning amalga oshishini ta'minlovchi vosita ekan. Demak, ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi. Badiiyat hodisasi faqat ikki ong tutashgan

nuqtadagina mavjud (M.Baxtin) bo'ladi. Ya'ni, badiiy asar o'qish (hamda ijod) jarayonidagina badiiyat hodisasiga aylanadi, o'qilmagan paytda u bir jism – qog'oz, muqova va rangdan iborat xolos.

Adabiyotlar tahlili. Merach Chag'ri Oqtosh o'z asarlarda insoning qalbida kechayotgan hislarni go'zal tasvirlab, o'tadi va inson ruhi, qalbi va aqlli ba'zida hislarini qarshisida ojiz qolishi mumkinligini va bir kunmas bir kun buni yengib, yana hayotga qayta olish mumkinligini, uning asarlaridan o'qib anglashimiz mumkin. “Sen o'n yetti yoshimsan” va “O'zinga xush kelding” bu ikki asarni o'qiganlar bilishadi, Asarlar bir – biridan farq etadi. Birinchi asarda biz hislari qadrlamagan, o'zining yetarlicha sarflagan barcha butun borliqini qaytarib ola olmagan insonning kechinmalarini o'qishimiz mumkin. **“Sevaman deyish va uni his qildirish o'rtasida katta farq bo'ladi. Kimlardir o'z do'stiga sen haqingda aytishni ham ko'p yaxshi ko'radi. Kimlardir o'z onasiga tanishish kunidan boshlab, sen haqingda gapirib charchamaydi”.**

Tadqiqot metodologiyasi. Inson bu hayotda turli xil vaziyatlarda turli his hislarni his etadi. Tabiiyki buni yengib o'tish uchun turli xil yechimlar o'ylab topadi. Shulardan eng samaralisi, necha ming yillar mobaynida eskirmayotgan, inson aqlini tanib, o'zini anglashi bo'lgan yozish san'atidir. Inson kechinmalari va hislari to'planib asar hosil bo'ladi. Hamma yozilganlarni ham asar deyish joiz emas. Qachonki u badiiylashtirilsa asar degan maqomga ega bo'ladi. Badiiylashtirish o'z o'rnida muhim ahamiyatga ega. Bu yozuvchidan ikkita tilni bilishni talab qiladi. Sodda va Badiiy til. Ya'ni atrofdagi insonlarning hech qanday jim jimasiz oddiy va sodda so'zlarni badiiylikka, o'quvchini ta'sirlantiruvchi, hayrat, hayajon, g'azab, mehr, sevgi, nafrat, rashk kabi hislariga ta'sir etuvchi go'zal jumlar, o'xshatishlar bilan yozilsa badiiy asar degan tushunchani yanada ko'proq anlaymiz. Bu o'z o'zidan yozuvchining qanchalik mahoratli bo'lgani va hayot hikoyasiga, yoki izlanishlariga bog'liq. Yozuvchining mahorati haqida so'z borar ekan uning qanchalik badiiy adabiyot va badiiy san'at bilimlarni egallaniga, albatta hech kimga notanish bo'lmagan ustoz shogird an'anasiga sodiqligiga bog'liq. Faqat shu bilan birga asar yarata olishimiz ulkan xato.

Badiiy san'at ilmi va adabiyotshunoslik bilimlaridan tashqari shu bilan birga insonlar hayoti, yon atrofdagi sodir bo'layotgan voqealar, tafakkuri izlanishlari kerak va zarurdir. Aks

xolda u o'quvchiga anglashi qiyin bo'lgan mukammal metodikadan farq etmay qoladi. Bilishimiz zarurki ba'zan insoning o'z his tuyg'ulari asarga aylanishi mumkin. Va bu o'z navbatida yozuvchi kabi his etgan o'quvchilarga ijobiy ta'sir etishi mumkin. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki berilgan ma'lumotlarga ko'ra ruhiyatida muammosi bo'lgan o'quvchilar Franz Kafka va Fyodor Dostoyevskiy asarlaridan terapiya olishganini ta'kidlab o'tishgan. Ko'rinib turibdiki badiiy asar inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi va biroz bo'lsada davolay oladi.

Har bir asar o'zga bir olam. Yozuvchi bizga yozishmalari yordamida nimadir anglatishga, o'rgatishga undayotgan bo'ladi. Biz asarni o'qish davomida nimanidir his etamiz, nimanidir salbiy va ijobiy tomonini anglaymiz. Kezi kelganda tafakkur qilamiz, baholaymiz, xulosa chiqaramiz. Bizni o'ylantirayotgan savollarga javob topamiz. Shu orqali biz ruhimizni yengil bo'lishiga va aqlimizni rivojlantirishimizga zamin yaratamiz. Shunday vaziyatlar bo'ladiki inson butkul yashab turgan olamidan charchaydi va nimadir qilishga bo'lgan xoxishi so'nadi. Atrofdagi voqea va hodisalar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Shunda inson o'z ichki olamidagi hislarni boshqarishni bilmay, esangkirab qoladi. Chorasizlik va ruhiy siqilishdan o'ziga yo'l va yechimlarni izlashni boshlaydi. Topadi ham bu yozishdir bor qalbidagi kechayotganlarni oq qog'ozg'a to'kadi. Insonlar hattoki o'zi anglamayotganlarni yozish orqali angelaydi va anglatadi. Shunday yozuvchilardan biri yosh iste'dodli, umidli, xalqimizga qardosh turk yozuvchisi Merach Chag'ri Oqtoshdir. **“Aslida bundan oldingi kitoblarimni yozishdan maqsadim ham o'zimning dardlarim bilan yuragingizni siqish emas balki, haqiqatni eslatish” (M.Ch.Oqtosh).**

Ha yozuvchi ko'p kitoblarda hayotida sodir bo'lgan va his etgan qalb kechinmalari bilan bolishadi va inson nima bo'lishidan qat'iy nazar o'zini sevishi kerakligi haqida bot – bot takrorlaydi. Yana bir asarida shunday ta'rif berib o'tadi: “Bu asarda men sanab o'tmagan ism qolmaydi, chunki bunisi oddiy va sodda minnatdorchilik bo'lib qolishini xohlamayman. Unga rahmat, bunga tashakkur shakli ham ma'qul emas. Zotan, yozgan kitoblarimda menga siz o'quvchilarimdan boshqa hech kimning yordami tegmagan. Bu yo'lda faqat siz men bilan bo'ldingiz. Chunki biz bir xil tuyg'ularni boshdan kechirdik”. Jummalarni tahlil etishimiz mumkin. Yozuvchi o'z o'quvchilari va o'zi kabi insonlarga atab yozganini va bevosita

anglagani hamda anglatganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Inson hayotda turli qiyinchiliklarga, mummolarga duch keladi.

Yuqoridagi so'zlarimizga mana shu jumlarlar yaqol misol bo'la oladi. "Ozinga xush kelding" asarida esa anchayin ulg'aygan, hayotni anglagan va teran ko'z bilan qaragan insoning hozirgi o'z holini bayon etgan yaxshi ahvoliga qadar tajribalari, xayotni anglashlarini ko'rishimiz mumkin. Bu xususda biz uning ushbu so'zlarni ta'kidlaymiz. "Ehtimol, hozir Merach yana qaysi qizning dardida kitob yozib, yana bizni o'rtamoqchi ekan? deb o'ylayotgandirsiz. Tashivishlanmang".

"Men sevmadim hech kimni, to'g'rirog'i seva olmadim". Yozuvchimizning ushbu so'zlardan ham ayonki u hayotning barcha tashvish-u hislarini yengib o'tib oxiri inson o'zini anglab topishini tushungan. Bugungi kunda barcha ishdagi, shaxsiy hayotdagi, qadrlash va qadrlanish haqida bilimga, ko'nikmaga,ega. Biroq hamma ham hislarni qadrlash va qadrlantirish haqida hech narsa demaydi. "Ozinga xush kelding" asari aynan mana shu haqida. "Ba'zan oynaga qarab turib o'zimning kulgim qistaydi, Nahotki besamar o'tgan kunlarim, noloyiq bo'lgan insonlarga sarflagan hislarim uchun arzirmidi deya so'rayman. Endi menga farqi yo'q kim keladi kim ketadi. Men o'zim bilan qolaman. Kun tavsiyasi bugun siz kimgadir berayotgan, e'tiboringiz, mehringizni, sarflayotgan vaqtingizni avvalo o'zingizga bering". Asarning bosh sahifalari shundan so'z ochadi. Asarlar o'zining avtobiografiklik va aynan shu jihati bilan o'quvchilarni o'ziga bog'lab qo'yadi hamda, so'z o'rnida bu ikki asarni tartib bilan o'qish maqsadga muvofiq. "O'zinga xush kelding"ni mohiyatini anglash imkonsiz, toki "Sen o'n yetti yoshimsan"ni o'qib bo'lmaguncha. Yozuvchi bu xususda alohida ta'kidlab o'tib ketadi: **"Mening oxirgi munosabatlarim "Sen o'n yetti yoshimsan" kitobimda tilga olingan qiz Zumra bilan bog'liq... "Sen mening o'n yettimsan" kitobini o'qiganlar ushbu qahramonni yaxshi taniydi. U mening boshimga qandayin kunlarni solganini ham bilishadi. Men umrimda oxirgi bor u kabi insonni hayotimga kirgizish sha'rafoti bilan inson zotining naqadar beshafqat ekanliga guvohi bo'ldim"**

Barcha fikrlarni jamlagan holatda biz bu ikki asar haqida shunday deya olishimiz mumkin. "Sen o'n yetti yoshimsan" bu amneziya bo'lsa, "O'zinga xush kelding" asari to'liq

reabilitatsiya kabi ta'sir etadi. Bu ikki kitob menga bir butun bo'lib, Nemis yozuvchisi Iogan Wolfgang Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” asarini qisman bo'lsada yodimga soldi. Gyote o'z asarida ramziy ma'noda Verter timsolida o'zini ta'svirlaydi.

Xulosa. Inson boshdan kechirganlarni ijobiy jihatdan yoki salbiy jihatdan qara olishi mumkin. Merach Oqtosh aytganidek “Hamma sevgi hikoyalari ikki tomonlama bo'lganda, yozuvchilar kitoblar orqali yetkaza olmagan, Sezen Aksu qo'shiq yarata olmagan bo'lar edi. Yildiz Tilbe chorasiz holda “Sen ham sev, ammo sevilma” kabi yonib aytilgan qo'shiqlari bo'lmasdi”.

Shoppenning kuylari yozilmas edi va dunyoning yana qanchadan qancha durdona asarlari yaralmas edi. Har bir narsaning o'ziga yarasha sababi va yechimi bor. Biz bularni shunchaki faqatgina qabul etishimiz emas, o'ylab kuzatishimiz darkor. Bu olam taqqoslashuv bilan anglanadi, ajratiladi, hattoki his etiladi. Qanday qilib, bu sodir bo'lishi mumkin, bir o'ylab ko'ring yomon bo'lmaganida yaxshi nimagaligini anglamas edik. Ijobiylikka darrov uchr olmaydi, toki salbiylik bilan yuzlashmaguncha, Gulning qadrini bilmas edik toki tikonlari botmaguncha.

Badiiy asarlarning insonga nimadir o'rgatishi barobarida ruhiy dalda berish tomonlarini, ijobiy ta'sir etish hamda salbiy fikrlashdan qochish hamda ruhiy barqarorlikka yetaklashga undaydi. Shunday har bir asarni oddiy va sodda qaramaslik balki uning zaminida nimalar yozganiga sinchiklab ko'rib chiqishimiz maqsadimiz bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин Михаил Михайлович // [Большая советская энциклопедия](#): [в 30 т.] – 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969.
2. F. M. Dostoyevskiy. Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar, T., 1966; Telba, T., 1981.
3. Kafka, Franz. [The Metamorphosis](#). New York: Simon and Schuster Paperbacks, 2009.
4. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

5. Merach Chag'ri Oqtosh. O'zinga xush kelding – T.: Factor Books nashriyoti, 2022.
6. Merach Chag'ri Oqtosh. Sen o'n yetti yoshimsan – T.: Yoshlar nashriyoti, 2023
7. Chamanovich, Bozorov Orif. "Motivation of love, loneliness and suicide in the novels" The Sufferings of Young Werther" and" Bonu"." *European multidisciplinary journal of modern science* 5 (2022): 376-379.
8. BOZOROV, Orif. "JAHON ADABIYOTIDA EPISTOLYAR JANR TADRIJI." «*ACTA NUUZ*» 1.1.5. 2 (2024): 261-263.
9. BOZOROV, O. (2024). JAHON ADABIYOTIDA EPISTOLYAR JANR TADRIJI. «*ACTA NUUZ*», 1(1.5. 2), 261-263.
10. BOZOROV, Orif. "Progress of the epistolary genre in world literature." (2024).
11. BOZOROV, Orif. "Progress of the epistolary genre in world literature." (2024).
12. BOZOROV, Orif. "Progress of the epistolary genre in world literature." (2024).
13. BOZOROV, Orif. "Progress of the epistolary genre in world literature." (2024).
14. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOYIY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
15. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOYIY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
16. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOYIY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41.1 (2025): 632-636.
17. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 113-118.
18. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.

19. Nomozov, Xurshid (2022). THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 229-231.
20. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 83-88.
21. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR*, 1(2), 52-58.